

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

MURODQOSIMOV RAVSHANBEK XOLMAMAT O‘G‘LI

**ALYUMINIY QOTISHMALARINI GAZ PECHLARIDA
SUYUQLANTIRISHDA METALLNING OKSIDLANISHINI
KAMAYTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.**

05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir varadioaktiv elementlar texnologiyasi (quymachilik va metallarga ishlov berish yo‘nalishi)

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Murodqosimov Ravshanbek Xolmamat o'g'li

Alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning oksidlanishini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirish..... 3

Муродқосимов Равшанбек Холмамат угли

Совершенствование технологии снижения окисления металла при плавке алюминиевых сплавов в газовых печах..... 23

Murodkosimov Ravshanbek Kholmamat ugli

Improving the technology for reducing metal oxidation during melting of aluminum alloys in gas furnaces 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

MURODQOSIMOV RAVSHANBEK XOLMAMAT O'G'LI

**ALYUMINIY QOTISHMALARINI GAZ PECHLARIDA
SUYUQLANTIRISHDA METALLNING OKSIDLANISHINI
KAMAYTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.**

05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir varadioaktiv elementlar texnologiyasi (quymachilik va metallarga ishlov berish yo'nalishi)

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida 2023.3.PHD/T3906 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb – sahifasida (www.tdtu.uz) va «ZiyoNET» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Atajanov Gapur Latibovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Azamat Xaitovich
texnika fanlari doktori, professor

Xasanov Jamshidbek Nasirdin o'g'li
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti
"MISIS"ning Olmaliq filiali.

Dissertatsiya himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.04. raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 24-dekabr kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel./faks: (99871) 227-10-32, e-mail: tadqiqotchi@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 65 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 227-10-32.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 11-dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil 11 dekabdagi 204 sonli reestr bayonnomasi).



K.A. Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh.B. Tashbulatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

N.D. Turaxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining zarurati va dolzarbligi. Jahonda alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda oksid qo‘shimchalarni kamaytirishga asoslangan tejamkor texnologiya ishlab chiqishga alohida ahamiyat berilmoqda, jumladan alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda ularning oksidlanishi oqibatida metall yo‘qotishlarini kamaytirish bilan bir qatorda qotishma tarkibini oksid qo‘shimchalardan holi qilish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Dunyoning yetakchi davlatlari, jumladan AQSH, Angliya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Rossiya kabi davlatlarning ilmiy-tadqiqot markazlarida alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda keng qo‘llaniladigan gaz pechlaridan sifatli mahsulot olishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda pech konstruksiyalarini takomillashtirish, suyuqlantirish texnologiyasini optimallashtirish, suyuq metallga modifikatorlar bilan ishlov berish usullarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda gaz pechlarida suyuqlantirish jarayonini optimallashtirish, atmosferaga chiqib ketayotgan gazlar tarkibini nazorat qilish, flyuslardan foydalanish, issiqlik almashinuvini barqarorlashtirish kabi yo‘nalishlarda olib boriladigan tadqiqotlar natijasida alyuminiy qotishmalarining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu bilan birga ishlab chiqarish tannaxsini kamaytirish, metall yo‘qotilishini qisqartirish va chiqindilar miqdorini kamaytirish bo‘yicha dunyoda ko‘plab mamlakatlarda alyuminiy qotishmalarini sifatini yaxshilashga hamda alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning oksidlanishini kamaytirishga doir muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yo‘nalishga alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning oksidlanishini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirish va ularni tadbiiq etish ishlari amalga oshirilmoqda hamda mustahkam quyma olish texnologiyasi dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

O‘zbekistonda quymakorlik usulida mashina detallarini va butlovchi qismlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan resurslardan unumli foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini hamda sifat ko‘rsatkichlarini ko‘tarishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amalda tadbiiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “... mashinasozlik zavodlari negizida kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va uskunalarni ishlab chiqarishni joriy etish va mahsulot turlarini kengaytirish, maxalliyashtirish darajasini oshirish hamda ular uchun zarur jihozlar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni tashkil etish.”¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga tadbiiq etishda quymakorlik usulida ishlov berish jarayonida, alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning oksidlanishini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirish va mexanik hamda fizik xossalari oshirilgan yangi materiallar texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi¹ PQ-307-sonli va 2022-yil 24-yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi² PQ-99-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi talablariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda dunyo olimlari, jumladan Brazilyaning Rio-de-Janeyrodagi Pontifikal Universiteti olimlari Angela O. Nieckele, Monica F. Naccache, Marcos Sebastião P. Gomeslar tomonidan alyuminiy suyuqlantirish pechlarining vannasidagi harorat hamda alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish uchun qo‘llanilgan yoqilg‘i suyuq yoqilg‘i yoki gaz yoqilg‘isi ustida ilmiy ishlar olib borishgan. Nigeriyaning olimlari Lawrence Opeyemi Osobaa, Oluwasegun Biodun Owolabib, Segun Isaac Talabic o‘zlarining “Alyuminiy qotishmalarini qayta suyuqlantirish jarayonida oksid paydo bo‘lishi va alyuminiy qayta olish mexanizmi” bo‘yicha, Indoneziyalik olimlar Widyantoro, Donanta Dhaneswara, Jaka Fajar Fatriansyah, Muhammad Reza Firmansyahlarining “Alyuminiy qoldiqlarini (chiqindilarini) suyuqlantirish jarayonida Oksid qatlamlarini natriy asosidagi flyuslar yordamida olib tashlash” bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan. Xitoyning Shanghai Jiao Tong Universiteti olimlari Chong Chen, Jun Wang, Da Shu, Sen Zhang, Baode Sunlar tomonidan “Alyuminiydan metall bo‘lmagan qo‘shimchalarni (asosan Al_2O_3 oksidlarni) yo‘qotish” bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan. Hamda Tsinghua universiteti olimlari Cong Li, Jian-guo Li, Yi-zhe Mao va Jia-cheng Ji yangi “flyus zaryadlash va kvars tigelni tez sovitish (charging and quenching)” metodini ishlab chiqishgan hamda alyuminiy suyuqlanmasidagi oksid aralashmalarni (asosan Al_2O_3) yo‘qotish mexanizmini qattiq flyuslar yordamida tozalash ustida ilim-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Hindistonning Islom Azad Universiteti olimlari Nima Khademian, Yaser Peimeilar tomonidan “Yuqori bosim ostida ADC 12 markali alyuminiy qotishmasi-dan quyib olingan avtomobil detallarining mexanik va mikrostrukturaviy xossalari” bo‘yicha ilmiy ish olib borishgan va ADC 12 markali markali alyuminiy qotishma tarkibidagi Si, Cu va Cr larni qotishma xususiyatlariga ta‘siri hamda qotishmaning suyuqlantirish harorati bo‘yicha ilmiy ish olib borishgan va o‘zlarining ilmiy ishlanmalarida “Alyuminiy qotishmalari orasida ADC 12 markali alyuminiy o‘zining tarkibidagi kremniy (Si) va mis (Cu) nisbatan ko‘pligi bilan ajralib turadi. Kremniy quymani suyuqligini yaxshilash va erish haroratini pasaytirish uchun xizmat qiladi. Evtektik qotishma qo‘shimcha va har xil gazlardan holi hamda yuqori issiqbardoshlikka ega bo‘lib shuningdaek qattiqlashtiruvchi ta‘sirga ega va yaxshi ishlov berish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-sonli Qarori

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi PQ-99-son Qarori

qobilyatiga ega. Qotishma tarkibidagi mis qotishmaning kuchining sezilarli oshishiga ta'minlaydi va dispersiyaning qattiqlashishini ta'minlaydi. Misni Alyuminiyga qo'shish qotishmaning egiluvchanligini va karroziya chidamliligini pasyitiradi va Al-Cu qotishmalarining qattiqlashuv yorilishiga moyilligini oshirishi mumkin. Ba'zida xrom issiq ishlov berish yoki issiqlik bilan ishlov berish paytida donlarning o'sishini cheklash maqsadida ishlatiladi, bu esa egiluvchanlik va qattqlikni yaxshilaydi Cr shuningdek, qotishmaning korroziya yorilishini sezilarli darajada pasaytiradi" kabi malumotlarni bergan. Malaysiyaning Malaysiya texnika Universiteti olimlari M.R.M. Kamal, H.A.M. Tahir, M.S. Salleh, H.N.H. Bazri, M.K. Musa va N. F. Bazilahlarning "Alyuminiy qotishmasining og'irlik kuchiga ega bo'lgan qolipga quyishning loyihalash va issiqlik tahlilini simulyatsiya qilish" nomli tadqiqot ishida alyuminiy qotishmasi uchun loyihalangan qolip dizaynini ishlab chiqqan hamda ular bu tadqiqot ishlarida nuqsonsiz quyma olish uchun eng maqbul dizayn vertikal dizayndir, chunki u gorizonta dizaynga nisbatan kamroq nuqsonlarga ega degan xulosaga kelishgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham ilmiy ishlar olib borilgan tadqiqotlar natijasida alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish uchun ikki kamerali gaz pechining konstruksiyasi, alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda resurs tejamlorligini ta'minlaydigan texnologiya va suyuqlantirish davrida temir va qo'rg'oshinning alyuminiy tarkibiga singish mexanizmi ishlab chiqilgan (A.O. Shazimov, N.D. Turaxodjeyev, Yu. N. Mansurov). Alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning g'ovakliklarini hamda nometall qo'shimchalarini kamaytirish hamda oksid miqdori (Al_2O_3 oksid) ni kamaytirish bo'yicha SH.N. Turaxodjeyeva, J.S. Kamalovlar tomonidan ham ilmiy-izlanishlar olib borishgan. Tadqiqotcholar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra alyuminiy tarkibidagi vodorod miqdorini 8-9 % ga va nometall qo'shimchalar miqdorini esa 6-7 % ga kamaytirishga erishilgan.

Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda yuqori ilmiy natijalarga erishilishiga qaramay, lekin hali hanuz yechimini topilmagan muammolar ko'p. Misol tariqasida, gaz pechlarida alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda sifati yuqori bo'lgan qotishma olish texnologiyasi ishlab chiqilmagan. Olib borilgan tadqiqotlar asosan alyuminiy qotishmalarining metallni suyuqlantirish, unga flyus bilan ishlov berish yuzasida olib borilgan. Qator tadqiqotlar suyuq alyuminiyning fizik-kimyoviy jarayonlarga taalluqli holda olib borilgan bo'lib, alyuminiy gaz pechlarida suyuqlantirishda gazlarning metallga singish jarayonida qotishmaning gazga to'yingan va to'yinmagan qotishma xossalari ustida tadqiqotlar olib borilmagan. Alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning oksidlanishini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirish esa dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya taqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga binoan № IL-210321288 "Gaz pechlarida aluminiy qotishmalaridan olinayotgan quyma mahsulotlar tarkibidagi gaz va nometall qo'shimchalarning

miqdorini kamaytirish texnologiyasini yaratish” mavzusidagi Toshkent davlat texnika universiteti va Innovatsion rivojlanish agentligining o’rtasidagi tuzilgan fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning oksidlanishini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

alyuminiy qotishmalarini olishda natriy asosidagi flyuslar bilan ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish;

alyuminiy qotishmalarini suyuq holatda ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish;

alyuminiy qotishmalarining tarkibidagi oksidlarni miqdorini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirish;

alyuminiy qotishmalarini gaz pechida suyuqlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

alyuminiy qotishmalarini pechdan tashqari ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida ADC 12 markali alyuminiy qotishmasi va alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish gaz pechi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ADC 12 markali alyuminiy qotishmasining tarkibidagi oksidlarning kamayishi qotishmaning mexanik-fizik xossalariga ta’siri hamda uning suyuq oquvchanligini oshirish va qotishma tarkibidagi gaz va nometall qo’shimchalarning miqdorini kamaytirish, alyuminiy qotishmasini suyuqlantirish uchun qo’llanilgan gaz pechining energiya samaradorligini oshirish, gaz pechidan chiqayotgan zararli elementlarni atrof-muhitga zararlarini ta’sir jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qotishmalarning kimyoviy tarkibi spektrometr usulida aniqlangan, qattiqligini aniqlashda Brinell usulidan foydalanilgan, mexanik xossalari va strukturasi o’rganishda fazalar identifikatsiyasi (SEM – Zeiss EVO MA 10 (Carl Zeiss)) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ADC 12 markali alyuminiy qotishmasiga natriy asosidagi flyus qo’shilish evaziga qotishma tarkibidagi g’ovaklik miqdorini kamaytirish texnologiyasi natriy elementining vodorodga nisbatan aktivligi asosida takomillashtirilgan;

ADC 12 markali alyuminiy qotishmasini suyuqlantirishda natriy fluor bilan ishlov berish texnologiyasi fluor elementining gazlarni biriktirish xossasi asosida takomillashtirilgan;

alyuminiy qotishmalarini gaz pechlari yordamida suyuqlantirishda alyuminiyning oksidlanishini kamaytiradigan texnologiyasi oksidlarning shlakga chiqarilish mexanizmi asosida ishlab chiqilgan;

suyuq alyuminiy qotishmasini pech ichida suyuqlantirishning ikki bosqichli rejimi, suyuq metal vannasining chuqurligi va yuzasi parametrlarining ishlov berish modifikatori miqdoriga nisbatan ishlab chiqilgan;

alyuminiy qotishmasini pechdan tashqari ishlov berishda azot yordamida purkash texnologiyasi azotning kimyoviy aktivligi asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gaz pechlariga alyuminiy shixtasini yuklashdan oldin uni dastlabki qizdirish rejimlari takomillashtirildi;

gaz pechlarida alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda suyuq qotishma bilan qattiq metall orasidagi issiqlik almashinuvini meyorlash kanali tadbiq etilgan;

alyuminiy qotishmalarini gaz pechlari yordamida suyuqlantirishda alyuminiy oksidlanishini kamaytiradigan texnologiya ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya tadqiqot ishida Tosh DTU, "Uz Auto-INZI" QK, ToshDTU Olmaliq filialida o'tkazilgan ko'plab tajriba zamonaviy jihozlardan metallografiya va mikrostruktura tahlillari, suyuqlik-oquvchanlik, qattqlikni o'lchash, atrof-muhitga chiqayotgan zararli gazlarni aniqlash uchun gaz analizatorlardan olingan tajriba natijalari mavjud tajriba ma'lumotlariga solishtirishdagi va mutanosiblik saqalanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan natijalarining ilmiy ahamiyati yetakchi olimlar ilmiy izlanishlari tahlillari yordamida, alyuminiy qotishmalariga gaz pechida flyuslar bilan ishlov berilishi; kovshda rafinirlanishi va gaz pechining konstruksiyasining optimallashtirilishi asosida resurs va energiyatejamkorlik ta'minlanishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot ishi natijalarining amaliy jihatdan ahamiyati shundaki, ADC 12 markali alyuminiy qotishmasini suyuqlantirish jarayonida pechda va pechdan tashqari natriy asosidagi flyuslar bilan ishlov berish asosida tarkibidagi oksidlarni miqdorini kamayishi xisobiga mexanik xossalardan qattqlik va quymakorlik xossalardan qotishmaning suyuqoquvchanlik xossasi oshdi hamda gaz pechlariga alyuminiy shixtasini yuklashdan oldin uni dastlabki qizdirish rejimlari ishlab chiqilganini hisobiga gaz pechining energiya-samaradorligi ortdi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning oksidlanishini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan tadqiqot natijalar asosida:

gaz pechlariga alyuminiy shixtasini yuklashdan oldin uni dastlabki qizdirish rejimlari "O'zAvtosanoat" AJ ga tegishli "Uz Auto-INZI" MCHJ QKda joriy qilingan. ("O'zAvtosanoat" AJ ning 27.02.2025 yildagi 21/06-25-0371-sonli ma'lumotnomasi) joriy qilish natijasida gaz sarfi 7-8% ga kamaygan;

gaz pechlarida alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda suyuq qotishma bilan qattiq metall orasidagi issiqlik almashinuvini meyorlash kanali "O'zAvtosanoat" AJ ga tegishli "Uz Auto-INZI" MCHJ QKda joriy qilingan. ("O'zAvtosanoat" AJ ning 27.02.2025 yildagi 21/06-25-0371-sonli ma'lumotnomasi) joriy qilish natijasida qizdirish kamerasidagi issiqlik yoqotish miqdori 10-11% ga kamaygan;

alyuminiy qotishmalarini gaz pechlari yordamida suyuqlantirishda alyuminiy oksidlanishini kamaytiradigan texnologiya "O'zAvtosanoat" AJ ga

tegishli “Uz Auto-INZI” MCHJ QKda joriy qilingan. (“O’zAvtosanoat” AJ ning 27.02.2025 yildagi 21/06-25-0371-sonli ma’lumotnomasi) joriy qilish natijasida alyuminiyning oksidlanishi sababli yoqotishlari 10-12% ga kamaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari jami 13 ta, 11 ta xalqaro miqyosda konferensiyalarida va scopus bazasida indeksatsiyalangan xalqaro konferensiyalarda 1 ta tezis, 2 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bilan bog’liq bo’lgan, umumiy holda 21 ta ilmiy materiallar nashr qilingan. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan 6 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda va scopus bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda 1 ta nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to’rtta bob, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, shartli belgi va atamalar ro’yxati hamda ilovalardan iborat bo’lib, hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilingan, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning oksidlanishini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirish bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.”** deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo’yicha adabiyotlar tahlil qilinib, alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda qo’llaniladigan pechlar hamda ularning turlari va ishlash prinsiplari, foydali ish koeffitsienti va kamchiliklari o’rganilgan. Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish pechlarida qanday turdagi alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish mumkin. Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish pechlaridan foydalangandanda alyuminiy mexanik-va fizik xossalarini oshirishga mo’ljallangan pechlar haqida yetakchi olimlarning ishlari hamda izlanishlari o’rganildi.

Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish uchun mo’ljallangan gaz pechlarining turlari va xususiyatlari. Ularning ishlash prinsipi va qanday gaz yoqilg’ilarga ishlashi haqida o’rganildi. Hamda gaz pechlarining ichki qoplamalari va resurs tejankorlik texnologiyalari o’rganildi. Gaz pechlarining konstruksiyalari va ularda qo’llanilgan texnologiyalar haqida olimlarning qilgan qishlari va o’tkazgan tajribalari o’rganildi. O’zbekistonlik olimlarning gaz pechlari ustida olib borilgan ilmiy-amaliy tajribalari ham o’rganildi va olimlar tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalar muhokama qilindi, bundan kerakli xulosa chiqargan holda mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda

texnologiya ham ishlab chiqildi.

Gaz pechlarida alyuminiy qotishmalarining suyuqlantirishda energiya sarfini kamaytirish texnologiyalari bo'yicha jaxonda olib borilayotgan tadqiqotlar ham o'rganilgan bo'lib. Olimlarning energiya sarfini kamaytirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar hamda ularning natijalarini olgan holda O'zbekiston sharoitiga mo'ljallagan holda mavud imkoniyatlardan kelib chiqib gaz pechlarining energiya sarfini kamaytirishga erishildi va sanoatda qo'llaniladigan gaz pechiga joriy qilindi. Gaz pechlarida alyuminiy qotishmasini suyuqlantirishda pech vannasidagi issiqlikdan samarali foydalanish bo'yicha jaxonda olib borilayotgan tadqiqotlar sharxi ham o'rganildi. Yetakchi olimlar olgan natijalar asosida mavjud texnologiyalar takomillashtirildi. Pech vannasidan chiqayotgan issiqlikdan tadqiqotchi olimlar korxonalarining isitish tizmlari uchun va boshqa lar uchun ishlatilishi ma'lum bo'ldi. Gaz vannasidan chiqayotgan issiqlikdan samarali foydalanish maqsadida shixtani qizdirishga yo'naltirilgan issiqlik hamda buunday muammolar ustida olib borilgan olimlarning tadqiqotlari ham o'rganildi.

Gaz pechlarida alyuminiy qotishmasini suyuqlantirishda hosil bo'ladigan oksidlarning miqdorini kamaytirish uchun jaxonda olib borilayotgan tadqiqotlar sharxi ham o'rganildi. Dunyo olimlarining alyuminiy qotishmalarining tarkibidagi oksidlarning kamaytirish ustida olib borilgan ilmiy ishlari tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob'ektini tanlash va tadqiqot usullarini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obykti sifatida alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish uchun gaz , ADC 10 va ADC 12 markali alyuminiy qotishmalari, qotishma tarkibidagi oksid qo'shimchalari, qizdirish qurilmalarida ishlatiladigan olov-bardosh qoplamalar, adapter 12 va adapter 11 detallari, qizdirish rejimlari olindi hamda qotishmadan bosim ostida quyish yo'li orqali olinayotgan adapter 12 detalining qattiqligini oshirish borasida olib borilgan tadqiqotlar usullari va tahlillari keltirilgan.

Xususan tadqiqot namunalarning tarkibidagi metall bo'lmagan qo'shimchalar hamda gaz g'ovaklarining tahlili uchun “UZ Auto-INZI” QKning markaziy laboratoriyasi Nikon Eclipse LV150N metallografik mikroskopdan foydalanilgan. Bunda ushbu mikroskop orqali tahlil qilinayotgan namunalarni 100-2000 martagacha kattalashtirilib olingan (1-rasm). Olingan mikroskopik mikrostruktura tahlillar asosida tadqiqot namunalari suyuqlantirish davrida qo'shilishi mumkin bo'lgan tarkibidagi metal bo'lmagan qo'shimchalar hamda gaz g'ovaklarining nazorati usullari tahlil qilingan.




1 – rasm. ADC 12 markali alyuminiy qotishmaning Nikon Eclipse LV150N metallografik mikroskopida olingan mikrostruktura tasvirlari.

Tadqiqot ishlari mobaynida olingan tajriba namunalarning mikrotahlilini o'tkazish uchun mikrotahlil tizimli spektrometrdan foydalanildi. UZ Auto-INZI”

QKning markaziy laboratoriyasida “SPEKTROMETR-M5000” uskunasi bilan foydalangan holda qotishma ning kimyoviy tarkibi aniqlandi. Gaz pechlaridan chiqayotgan dudboʻron tarkibidagi zararli gazlarning miqdorini hamda uning tarkibidagi turli xil gazlarni aniqlash maqsadida “Testo 350” markali gaz analizatoridan foydalanildi.

Dissertatsiyaning **“Gaz pechlarida alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish davrida alyuminiy oksidlanish darajasini kamaytirish uchun shixtani qizdirish rejimlarini ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida gaz pechidan chiqayotgan chiqindi issiqlikdan foydalangan holda shixtani qizdirish boʻyicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Qotishma tarkibidagi oksidlarning miqdorini kamaytirish boʻyicha olib borilgan tadqiqot va natijalari keltirilgan.



2- rasm. “Uz Auto-INZI” korxonasidagi alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish uchun moʻljallangan pechning sxematik koʻrinishi. 1-pechning tashqi qoplamasi, 2-yuklash eshigi, 3-chiqindi gazlarni tashqariga chiqaruvchi quvur (demoxot), 4,8-gaz trubasi, 5,9-alanga uchun gaz garelkasi, 6-suyuqlantirish uchun yuklangan shixta, 7-Erigan alyuminiy qotishmasi, 10-Suyuq alyuminiy kovshga yuklash eshigi, 11-olov-bardosh material (gʻisht) dan qurilgan devor, 12-qoʻshimcha eshik, 13-suyuqlangna alyuminiy saqlash kanali.

Pechga yuklanayotgan shixtani qizdirgan holda yuklaganda suyuqlanish vaqti qizqarganini hisobiga hamda alyuminiy qotishmasining gaz bilan toʻyinib kamayadi. Pechda shixtani suyuqlantirish uchun sarflanadigan vaqtni hisoblash hamda kamaytirish uchun Toshkent davlat texnika Universitetining “Metallar texnologiyalari” kafedrasida tadqiqotlarni oʻtkazdik hamda sarflanayotgan gaz sarfini 2.5 barobarga kamaytirdik. Buning asosiy sabablaridan pechga qizigan shixtani yuklash hisobiga sodir boʻldi. Shixtani qizdirish uchun qechdan chiqayotgan chiqindi issiqlikdan samarali foydalanish uchun, chiqindi issiqlikni shixta qizdirishga sarfladik bu boʻyicha tajriba-sinovlari oʻtkazildi va natijalar olindi.




3-rasm. Turbulentlikni oshirish maqsadida jihozga moslama o'rnatilgandan so'ng jihoz ichidagi harorat: a-274 °C, b-287 °C, c-326-°C.

Qizigan metallaning harorat ko'rsatgichlari jihozning turli joylarida hajmi bo'ylab turlicha ko'rsatgich ko'rsatganini inobatga olgan holda o'rtacha 300 °C olingan. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki shixtani suyuqlantirish davomida yuklanadigan shixtani qizdirish samarali usul bo'lib. O'tkazilgan tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki pechga yuklangan shixta 25-30 daqiqa davomida suyuqlanganda keyingi yuklanadigan metallomni 250-300 °C haroratgacha qizdirish mumkin hamda gaz sarfini esa 2.5 barobargacha kamaytirish mumkin. Ishlab chiqarish korxonalarida pech o'chmasdan ishlaganligi sababli qizdirishga yuklangan shixta haroratini nafaqat 300 °C balkim undan ham yuqori haroratgacha olib kelsa bo'ladi. Biz o'tkazgan pechda alyuminiy suyuqlantirish uchun gaz pechning harorat ko'rsatgichi 660 °C haroratni tashkil qildi. Uz Auto-INZI korxonasi pech ichidagi harorati esa 718 °C ni tashkil qilmoqda. Bunday holatda shixtani 350 °C haroratgacha ko'tarish mumkin. Korxonaning ishlab chiqarish pechiga shixta yuqoridan yuklanganligi pechning chiqindi gaz chiqadigan quvur qismiga qo'shimcha yuqori haroratga chidaydigan moslama (setka) qo'yish kerakligi haqida takliflar berildi va buni ishlab chiqarish korxonasida qo'llashdi.

Alyuminiy qotishmasini quyib olish jarayonida natriy asosidagi flyuslar bilan oksidli qo'shimchalardan tozalash asosida qotishmaning oquvchanlik xossasini oshirish bo'yicha ham laboratoriya va korxonada sinov-tadqiqot ishlari. Alyuminiy qotishmalarini suyuqlanirish davomida oksidlanish xossasi yuqori bo'lib bu esa metallning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Metallarning suyuq oquvchanlik xossasi metall qotishmalarining asosiy xossasi xisoblanib. Suyuq oquvchanlik xossasi suyuq metallning tarkibiga hamda qolipning konstruksiyasiga bog'liq. O'tkazilgan tajriba suyuq metallning oquvchanlik xossasiga o'zining ta'sirini o'tkazdi hamda uning tarkibidagi oksidlarning kamayishiga sabab bo'ldi. Alyuminiy qotishmasining tarkibida oksidlarni kamaytirish va suyuq oquvchanligin yaxshilash maqsadida flyus sifatida NaF (Natriy ftorid), NaNO₃ (Natriy Nitrat), NaCl (Natriy Xlorid) va Na₂SO₄ (Natriy Sulfat) dan ishlatdik (1-diagramma)da ulushning qismi ko'rsatilgan va ADC 12 markali alyuminiy qotishmasidan foydalandik shixta sifatida. ADC 12 markali alyuminiy

qotishmasining kimyoviy tarkibi 1-jadvalda ko'rsatilgan.



1-diagramma

ADC 12 markali alyuminiy qotishmasining kimyoviy tarkibi.												
Nom i	Elementlar, %											
	Si	Cu	Fe	Mn	Mg	Ti	Zn	Ni	Sn	Pb	Cr	Al
ADC	11,366	2,492	0,862	0,413	0,174	0,054	0,930	0,066	0,026	0,08	0,0	83,463
12	6	6	3	6	9	4	2	7	7	7	2	6

Tadqiqotni o'tkazib o'tkazish metallarni turli xil temperaturada 660 °C, 680 °C, 700 °C, 720 °C va 720 °C da qotishmani suyuqlantirib unga flyus qo'shildi. Flyuslarning tarkibi NaF (Natriy ftorid), NaNO₃ (Natriy Nitrat), NaCl (Natriy Xlorid) va Na₂SO₄ (Natriy Sulfat) larni aralashmasi qo'shildi, flyusning 40% ni NaF (Natriy ftorid), 30% ni NaCl (Natriy Xlorid), 18% ni NaNO₃ (Natriy Nitrat), 12% ni Na₂SO₄ (Natriy Sulfat) tashkil qiladi qiladi (1-diagramma). O'tkazilgan tajribada ham 3 xil miqdor hajmdagi flyusdan foydalanildi. 1-tarkibli flyusning hajmi yuklangan shixtaning 100 foizdan 2 foizini tashil qiladi, 2-tarkibli flyusning miqdori esa 100 foizdan 5 foizini tashkil qiladi, 3-tarkib esa flyus qo'shmagan holda quyma olindi. ADC 12 markali alyuminiy qotishmasidan sifatli quymalar olish va ularning suyuqoquvchanligiga NaF (Natriy ftorid), NaNO₃ (Natriy Nitrat), NaCl (Natriy Xlorid) va Na₂SO₄ (Natriy Sulfat) mikrozararlari ta'sirini o'rganishda umumiy matematik model yaratildi.



a)

b)

c)


4-rasm. Flyus miqdori turlicha qo'shilgan 720 °C haroratda quyib olingan spiral namunalarning ko'rinishi. a-5 foiz miqdorda qo'shilgan flyusning namunasi uzunligi esa 595 mm, b-flyus qo'shilmagan shixtaning o'zining namunasi uzunligi esa 508 mm, c-2 foiz miqdorda qo'shilgan flyusning namunasi uzunligi esa 513 mmni tashkil qilgan.

Olingan natijalarni solishtirganimizda demak flyusning qo‘shilish foiz ko‘rsatgichi ham shixtaga turlicha ta‘sir qilmoqda. Flyussiz quyib olingan namunaning uzunligi 508 mmni tashkil qilmoqda. Flyus qo‘shilgan 2 foiz qo‘shilgan namunaning uzunligi 513 mmni tashkil qilayabti. Flyus 5 foiz qo‘shilgan namunaning uzunligi 595 mmni tashkil qilmoqda. Eng maqbul variant sifatida esa 5 foizli flyus maqbul ko‘rildi chunki olingan namunaning uzunligi 595 mmni tashkil qilayabti. Olingan namunalarning jadvalda ko‘rinishi (2-jadvalda ko‘rsatilgan).


Namuna	Material (gr)	Flyus foizi	Temperatura	Uzoqchilikning uzunligi (mm)
1	150	flyussiz	680 °C	505
2	150	0.2%	680 °C	515
3	150	0.5%	680 °C	540
4	150	flyussiz	720 °C	508
5	150	0.2%	720 °C	513
6	150	0.5%	720 °C	595
7	150	flyussiz	700 °C	510
8	150	0.2%	700 °C	513
9	150	0.5%	700 °C	556
10	150	flyussiz	660 °C	503
11	150	0.2%	660 °C	511
12	150	0.5%	660 °C	535

2-jadval. O‘tkazilgan tajribalardagi namuna va ularga qo‘shilgan flyuslarning miqdori.


Olingan natijalarni grafiklarga joylaganimizda turli xil ko‘rsatgichlarni kuzatishimiz mumkin (1-grafik).



O‘rganilgan ham olingan mikrostrukturalardan ko‘rinib turibdiki flyusning qo‘shilishi shixta tarkibidagi oksidlarni yetarli miqdorda kamaytiradi. Olingan natijalarning strukturaviy ko‘rinishi 5,6,7-rasmlarda ko‘rsatilgan.



5-rasm. Flyus qo‘shilmagan holda olingan namunaning strukturaviy ko‘rinishi.



6-rasm. 2 foiz qo‘shilganda namunaning mikrostrukturaviy ko‘rinishi.





7-rasm. 5 foizli flyusning qo‘shilganda namunaning strukturaviy ko‘rinishi.

Qo‘shimchalarning oquvchanlikka ta’siri shundaki, sof alyuminiyning oquvchanligi oksid qo‘shimchalari mavjudligi tufayli sezilarli darajada kamayadi, chunki oksid qo‘shimchalari suyuq metall oqimini to‘sib qo‘yadi. Namunalarning oquvchanligi temperatura oshishi va flyus qo‘shilishi bilan ortadi. Chunki alyuminiy quyishda flyus va temperaturani qo‘shish qo‘shimchalarni kamaytirishi mumkin, bu esa metallning oquvchanligini oshiradi. O‘tkazilgan tadqiqotlarimizni inobatga olgan holda quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin: NaF (Natriy ftorid), NaNO_3 (Natriy Nitrat), NaCl (Natriy Xlorid) va Na_2SO_4 (Natriy Sulfat) asosidagi flyus qo‘shilishi quyish jarayonida eritilgan alyuminiyning sifati yaxshilanadi. Buning sababi, flyus eritilgan metall dan oksid qo‘shimchalarni bog‘lab, sirtga chiqarish rolini o‘ynaydi. Flyusning og‘irlik foizi va suyuqlanish temperaturasi

o'zining optimal nuqtasiga ko'tarilishi bilan oksid qo'shimchalari kamayadi. 720°C haroratda flyus bilan ishlov berish oksid qo'shimchalarni olib tashlashda eng yuqori samaradorlikka ega. 720 °C haroratda va 0,5% flyus miqdori bilan alyuminiy eritmasining eng yaxshi oquvchanligi ta'minlanadi.


Alyuminiy qotishmasini quyib olish jarayonida natriy asosidagi flyuslar bilan oksidli qo'shimchalardan tozalash asosida qotishmaning qattqlik va cho'zilish xossalari tekshirishda olingan quymalarning qattqligini tekshirish uchun korxonada sinov-dastgohlaridan foydalangan holda qattqlikning temperaturaga bog'liqlik grafiklar tuzilgan hamda natriy asosidagi flyusning suyuq metallga qo'shilishi evaziga qanday reaksiyalar kechishi tushuntirilgan. Hamda olingan namunalarning cho'zilishg sinash natijasida olingan natijalar ham jamlangan.



2-gafik: Namunalarni cho'zilishga sinash.

Olingan grafikdan ko'rinib turibdiki flyus miqdorini 5 foiz qiymati hamda temperaturaning 720 °C haroratli eng yuqori qattiqlikni ko'rsatmoqda. Qo'shilgan flyusning qotishma tarkibiga qay holatda ta'sir qilishi va kimyoviy reaksiya jarayonini sodir bo'lishi haqida ham ma'lumotlar berilgan.


- **Kimyoviy reaksiya**



Flyus tarkibidagi NaF (natriy ftorid) va NaNO₃ (natriy nitrat)ning ta'sirini yuqoridagi tenglamadan ko'rishimiz mumkin, flyusning asosiy vazifasi suyuq alyuminiyda azot gazini (N₂) hosil qilish. Hosil bo'lgan azot gazi vodorod gazini (H₂) o'ziga olib, suyuqlik yuzasiga chiqadi. Buning natijasida suyuqlik tarkibidagi bo'shliqlar kamaydi.

Flyus tarkibidagi NaNO₃ (natriy nitrat) suyuqlantirilgan alyuminiy botganda quyidagi reaksiyalar orqali N₂ (azot gazi)ni hosil qiladi:

NaNO₃ (natriy nitrat) ning yuqori haroratda parchalanishi:



Keyin NaNO₃ (natriy nitrat) alyuminiy bilan kirishgan holda azot gazini ajratadi:




NaF (natriy ftorid) suyuqlikdagi H₂ (vodorod) bilan reaksiyaga kirishgan holda HF (vodorod ftorid)ni hosil qiladi:



NaCl + Na₂SO₄ ning alyuminiy qotishmasining suyuqlantirishda qo'llanilishi va foydali jihatlari.

Na₂SO₄ alyuminiy qotishmasi suyuqalanish jarayonida issiqlikga parchalangan holda SO₂ gazini ajratadi:



SO₂ alyuminiy Al₂O₃ (oksid plyonka) sini kimyoviy parchalagan holda, suyuq metallning birlashishini bir muncha yaxshilaydi.

Mg, Ca kabi aralashmalar Na₂SO₄ bilan reaksiyaga kirishgan holda, sulfat shaklida shlak tarkibiga kiradi:



Biz qo'llagan flyus orqali korxonadagi gaz pechlarida suyuqlantirilgan alyuminiy qotishmasining metall yo'qolishi kamaygan (oksid plyonkaning parchalanishi hisobiga). Suyuqlik tozaligi ta'minlandi, gaz va boshqa oksidlar chiqarildi. Energiya sarfi kamaydi.

Dissertatsiyaning **“Alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirish texnologiyasini takomillashtirishning matematik modelini ishlab chiqish”** deb

nomlangan 4-bobida “Uz Auto-INZI” QK da ishlab chiqilgan yangi tarkibli flyus hamda korxonada sharoitida qo’llaniladigan flyusdan foydalangan holda quymalar olindi. Qo’llanilgan yangi tarkibli flyus hamda korxonada sharoitida ishlatilib kelayotgan flyusdan foydalanib tadqiqot natijalari olindi. Olingan quymalar ikki rejimda olindi korxonada qo’llanilgan flyus, korxonadagi avvalgi ishlab chiqarishda qo’llanilgan texnologiya asosida, hamda yangi tarkibli flyus biz ishlab chiqqan texnologiya asosida ya’ni qizigashixta mahsulotlarini pechga yuklash hamda, suyuq metallga pech ichida hamda pechdan tashqari ishlov berish. Ishlab chiqilgan texnologiya asosida alyuminiy qotishmasining tarkibidagi oksid qo’shimchalarning miqdorini 1-2 % gacha tushirishga muvaffaq bo’ldik. 3-jadvalda korxonada tomonidan qo’llanilgan pechdan olingan quymalarning tarkibidagi oksid miqdorini ko’rsatilgan jadval shakllangan. Jadvalga ko’ra korxonada tomonidan qo’llanilgan flyus hamda biz ishlab chiqqana texnologiya hamda flyusdan foydalangan holda olingan natijalarni ko’rishimiz mumkin.

3-jadvalda korxonada tomonidan qo’llanilgan flyus va flyus qo’shmagan holda olingan quyma tarkibidagi oksidlarining miqdori.

Temperatura	Flyus qo’shilmagan holda			Al ₂ O ₃
720				10-14 %
Temperatura	KCl	NaCl	oshqa qo’shimchalar	Al ₂ O ₃
720	47.5 %	47.5 %	5 %	6-9 %

4-jadvalda Ishlab chiqilgan yangi tarkibli flyus asosida olingan quyma tarkibidagi oksidlarining miqdori.

Temperatura	NaF	NaCl	NaNO ₃	Na ₂ SO ₄	Al ₂ O ₃
660	40 %	30 %	18 %	12 %	4-5 %
680	40 %	30 %	18 %	12 %	3-4 %
700	40 %	30 %	18 %	12 %	1-3 %
720	40 %	30 %	18 %	12 %	1-2 %

4-jadvalda yangi ishlab chiqilgan yangi tarkibli flyus asosida turli temperaturalarda olingan quymalarning tarkibidagi oksid miqdorlari ko’rsatilgan. O’tkazilgan tadqiqotlarga ko’ra olingan ma’lumotlarga tayangan holda. Bizda flyus miqdorlarini turli miqdorda qo’shgan holda oksidlarning ko’rsatgichlarimiz mavjud bo’lib (5-jadval).

5-jadval. Flyusning miqdoriga alyuminiy oksidning bog‘liqlik jadvali.

Temperatura	Flyusning miqdori	Al ₂ O ₃
720	0.01	9-10 %
720	0.02	8-7 %
720	0.03	6-5 %
720	0.04	2-3 %
720	0.05	1-2 %

Endi yuklanayotgan shixta tarkibiga flyus miqdorining qo‘shilishi bilan alyuminiy qotishmasining tarkibidagi oksid qo‘shimchalarining miqdoriy o‘zgarishini aniqlaymiz. 5-jadvalda keltirilgan tajriba-sinovlardan aniqlangan ma’lumotlar asosida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

$$f_1=0.1, f_2=0.2, f_3=0.3, f_4=0.4, f_5=0.5 \quad (8)$$

$$\alpha_1=9, \alpha_2=7, \alpha_3=5, \alpha_4=3, \alpha_5=2, \quad (9)$$

Algebraik tenglamalar sistemasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{cases} a_1 + 0.1a_2 + 0.01a_3 + 0.001a_4 + 0.0001a_5 = 0.09 \\ a_1 + 0.2a_2 + 0.04a_3 + 0.008a_4 + 0.0016a_5 = 0.07 \\ a_1 + 0.3a_2 + 0.09a_3 + 0.027a_4 + 0.0081a_5 = 0.05 \\ a_1 + 0.4a_2 + 0.16a_3 + 0.064a_4 + 0.0256a_5 = 0.03 \\ a_1 + 0.5a_2 + 0.25a_3 + 0.125a_4 + 0.0625a_5 = 0.02 \end{cases} \quad (10)$$

Ushbu tenglamani algebraik tenglamalar sistemasini Gauss yoki Kramer usulida Mathcad dasturida hisoblaganda quyidagi yechim ildizlarida ega bo‘lamiz:

$$a_1=0.12, a_2=-0.4083, a_3=1.4583, a_4=-4.1667, a_5=4.1667$$

flyus miqdorining o‘zgarishi bilan qotishma tarkibidagi oksid miqdorining o‘zgarishini xarakterlaydigan funksiya quyidagi holatda bo‘ladi:


$$\alpha(f)=0.12-0.4083f+1.4583f^2-4.1667f^3+4.1667f^4 \quad (11)$$

Ushbu ifoda orqal flyus (f) ning miqdori o‘zgarishi bilan qotishma tarkibidagi oksid miqdorining o‘zgarishi bir qiymatli hisoblash va aniqlash imkoniyatini yaratadi. Aniqlik darajasini ko‘rsatish uchun esa Mathcad dasturidan foydalanilgan.

$$A \cdot X = B \quad (12)$$

Bu yerda:

$$A = \begin{bmatrix} 0.1 & 0.01 & 0.001 & 0.0001 \\ 0.2 & 0.04 & 0.008 & 0.0016 \\ 0.3 & 0.09 & 0.027 & 0.0081 \\ 0.4 & 0.16 & 0.064 & 0.0256 \\ 0.5 & 0.25 & 0.125 & 0.0625 \end{bmatrix}, \quad X = \begin{bmatrix} a_2 \\ a_3 \\ a_4 \\ a_5 \end{bmatrix}, \quad B = \begin{bmatrix} 0.09 - a_1 \\ 0.07 - a_1 \\ 0.05 - a_1 \\ 0.03 - a_1 \\ 0.02 - a_1 \end{bmatrix}$$



3-grafik. Qotishmaga qo‘shiladigan flyusning miqdoriy ko‘rsatgichi ortishi bilan uning tarkibidagi oksid miqdorining kamayishi grafigi

XULOSA

Alyuminiy qotishmalarini gaz pechlarida suyuqlantirishda metallning oksidlanishini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarining tahlillari asosida quyidagi asosiy xulosalar berilgan:

1. ADC 12 markali alyuminiy qotishmasidan olinayotgan “adapter 12” detali quymasini olishda pechda qo‘shiluvchi natriy asosidagi flyuslar bilan ishlov berish texnologiyasini takomillashtirilgan. Bu quymada gazlar va oksidlar miqdorini kamaytirishga imkon beradi;

2. ADC 12 markali alyuminiy qotishmasidan olinayotgan “adapter 12” detali quymasini olishda suyuq holatda ishlov berish texnologiyasi takomillashtirilgan. Bu qotishmada mayda donador struktura shakllanishiga va bu orqali qotishmaning suyuqlikoquvchanligining oshirishga xizmat qiladi;

3. ADC 12 markali alyuminiy qotishmasidan olinayotgan “adapter 12” detali quymasini olishda alyuminiy qotishmalarining tarkibidagi oksidlarni miqdorini kamaytirish texnologiyasini takomillashtirilgan. Bu quymada shlak miqdorini kamaytirishga imkon beradi;

4. ADC 12 markali alyuminiy qotishmasidan olinayotgan “adapter 12” detali quymasini olishda gaz pechga shixta yuklashning energiyatejamkor texnologiyasi ishlab chiqildi. Bu orqali pech gaz sarfi kamaytirish imkonini beradi;

5. Qotishmani pech tashqarisida kovshda va quyish vaqtida suyuq holatda ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bu quyma mahsulotlardagi gazlarni kamaytirish uchun xizmat qiladi;

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.03.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

МУРОДҚОСИМОВ РАВШАНБЕК ХОЛМАМАТ УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ УМЕНЬШЕНИЯ
ОКИСЛЕНИЯ МЕТАЛЛА ПРИ ПЛАВКЕ АЛЮМИНИЕВЫХ СПЛАВОВ
В ГАЗОВЫХ ПЕЧАХ**

**05.02.01- Материаловедение в машиностроении. Литейное производство. Термическая
обработка металлов давлением. Металлургия черных, цветных и редких металлов.
Технология редких, ценных и радиоактивных элементов (направление литейное
производство и обработка металлов)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
(PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.. В мире особое внимание уделяется разработке экономичной технологии, основанной на уменьшении оксидных примесей при плавке алюминиевых сплавов в газовых печах, в частности, при плавке алюминиевых сплавов в газовых печах, наряду с уменьшением потерь металла вследствие их окисления, проводится ряд научных исследований по устранению оксидных примесей в составе сплава. В научно-исследовательских центрах ведущих стран мира, в том числе США, Англии, Германии, Италии, Японии, Кореи, Китая, России особое внимание уделяется получению качественной продукции из газовых печей, широко применяемых при плавке алюминиевых сплавов. В этом направлении особое внимание уделяется совершенствованию конструкций печей, оптимизации технологии плавки, разработке способов обработки жидкого металла модификаторами.

В результате исследований, проводимых в мире по таким направлениям, как оптимизация процесса плавки в газовых печах, контроль состава газов, выбрасываемых в атмосферу, использование флюсов, стабилизация теплообмена, особое внимание уделяется улучшению качественных показателей алюминиевых сплавов. В то же время во многих странах мира проводятся важные работы по снижению себестоимости производства, уменьшению потерь металла и уменьшению количества отходов, улучшению качества алюминиевых сплавов и снижению окисления металла при плавке алюминиевых сплавов в газовых печах. В этом направлении ведутся работы по совершенствованию и внедрению технологии снижения окисления металла при плавке алюминиевых сплавов в газовых печах, а технология получения прочных отливок является одной из актуальных задач.

В Узбекистане осуществляются широкомасштабные мероприятия по проведению исследований и внедрению на практике новых технологий, способствующих эффективному использованию ресурсов, применяемых при производстве деталей машин и комплектующих изделий литейным способом, а также повышению эффективности производства и показателей качества. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи по "внедрению производства горно-металлургических машин, техники и оборудования на базе машиностроительных заводов и расширению ассортимента продукции, повышению уровня локализации и организации производства необходимого оборудования и комплектующих для них." В реализации этих задач важное значение имеет совершенствование технологии снижения окисления металла при литейной обработке, плавке алюминиевых сплавов в газовых печах и разработка технологии новых материалов с улучшенными механическими и физическими свойствами.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан No ПП-307 от 6 июля 2022 года "Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026

годы" и No ПП-99 от 24 января 2022 года "О мерах по созданию эффективной системы развития производства и расширения промышленной кооперации в республике," а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с требованиями II приоритетного направления развития науки и технологий республики "Энергетика, энерго- и ресурсосбережение."

Степень изученности проблемы. В настоящее время ученые всего мира проводят исследования в области алюминиевых плавильных печей. Ученые Pontifical University в Рио-де-Жанейро (Бразилия) Angela O. Nieckele, Monica F. Naccache и Marcos Sebastião P. Gomes изучали температуру в ванне алюминиевых плавильных печей и использование жидкого или газового топлива для плавления алюминиевых сплавов. Нигерийские ученые Lawrence Opeyemi Osobaа, Oluwasegun Biodun Owolabib и Segun Isaac Talabic исследовали "Механизм образования оксидов и восстановления алюминия в процессе переплавки алюминиевых сплавов." Индонезийские ученые Widyantoro, Donanta Dhaneswara, Jaka Fajar Fatriansyah и Muhammad Reza Firmansyah изучали "Удаление оксидных слоев с помощью флюсов на основе натрия в процессе плавки алюминиевых отходов." Ученые Шанхайского университета Цзяо Тун в Китае Chong Chen, Jun Wang, Da Shu, Sen Zhang и Baode Sun провели исследования по "Удалению неметаллических примесей (в основном оксидов Al_2O_3) из алюминия." Ученые Университета Цинхуа Cong Li, Jian-guo Li, Yi-zhe Mao и Jia-cheng Ji разработали новый метод "флюсовой зарядки и быстрого охлаждения кварцевого тигля" и исследовали механизм удаления оксидных примесей (в основном Al_2O_3) из расплава алюминия с помощью твердых флюсов. Ученые Исламского университета Азад в Индии Nima Khademian и Yaser Reimei изучали "Механические и микроструктурные свойства автомобильных деталей, отлитых из алюминиевого сплава марки ADC 12 под высоким давлением," а также влияние Si, Cu и Cr на свойства и температуру плавления этого сплава. В своей работе они отметили: "Среди алюминиевых сплавов ADC 12 отличается относительно высоким содержанием кремния (Si) и меди (Cu). Кремний улучшает текучесть отливки и снижает температуру плавления. Эвтектический сплав свободен от примесей и газов, обладает высокой термостойкостью, упрочняющим действием и хорошей обрабатываемостью. Медь значительно повышает прочность сплава и обеспечивает дисперсионное упрочнение. Добавление меди к алюминию снижает пластичность и коррозионную стойкость сплава, может увеличить склонность сплавов Al-Cu к твердению и растрескиванию. Хром иногда используется для ограничения роста зерен при горячей обработке или термообработке, что улучшает гибкость и твердость. Cr также значительно снижает склонность сплава к коррозионному растрескиванию." Ученые Малайзийского технического университета M.R.M. Kamal, H.A.M. Tahir, M.S. Salleh, H.N.H. Vazri, M.K. Musa и N. F. Bazilah в своей работе "Проектирование

